

INSHO ETILGAN

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yilning 7-08-2023 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

**60910100– Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari**

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qismlar", "Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka standartlari tizimi, kasbiy standartlar va kadrlar tayyorlovchilari ta‘limlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy ma‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga murojaat qilinadi.

Toshkent 2023

ЎЗР ОЎМТВ
Буйруқ № 344
7.08.2023 йил

ISHLAB CHIQLIGAN

- Toshkent davlat stomatologiya instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 7 » 08 dagi 344- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvilari	4
1.2.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kabi faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob‘ektlari	5
1.2.3.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari	6
2.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotiga qo‘yiladigan talablar.....	16
2.3.1.	Kvalifikatsiya	17
2.3.2.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklari bo‘yicha soatlar va kreditlar	17
2.3.3.	60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi	17
	Bibliografik ma‘lumotlar	19
	Kelishuv varag‘i	20

1. 60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklda amalga oshiriladi. Ta‘lim shakli o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 5 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi

Malaka talabi **60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha tibbiyot va farmasevtika oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul, hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta‘lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

– bakalavr bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

– oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi – fan va sog‘liqni saqlash sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o‘rtasida stomatologik kasalliklarni tashhislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish, stomatologik yordam va

dispanser kuzatuv faoliyatining usullari va uslublarning sifatini oshirish (davolash-profilaktik, tibbiy-ijtimoiy) bo'yicha kompleks masalalarni yechish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish hamda davlat va nodavlat tibbiy muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– sog'liqni saqlash tizimidagi barcha davlat va nodavlat davolash muassalalar, jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublarni majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy-stomatologik yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot markazlari va institutlari., innovatsion va ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriyat ta'lim yo'nalishini tamomlangandan so'ng, Sog'liqni saqlash tizimidagi barcha davlat va nodavlat davolash muassasalarida, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va sohaga oid ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida stomatologiya sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks masalalarini yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- rehabilitatsiya;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy- boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyati.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalarini bilishi, O'zbekiston Respublikasi rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilish, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol xayotiy nuqta inzarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim
- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inidagi davolash-profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarish;
- tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;
- aholi sog'ligi holatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tibbiy-profilaktik faoliyatida:

- salomatlik, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, shuningdek, stomatologik madaniyat, sanitar-gigiyenik tarbiya, ratsional ovqatlanish, zararli odatlar bilan kurashish, o'smirlarni sog'lomlashtirish, ona va

bola salomatligini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- aholi orasida keng tarqalgan stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- surunkali stomatologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko'rik o'tkazish, aholining umumiy dispanserizatsiyasini amalga oshirish;

- tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:

- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash;

- kasalxonagacha bo'lgan tez tibbiy yordamni ko'rsatish;

- aholiga kasalxonagacha bo'lgan shoshilinch stomatologik yordamni ko'rsatish;

ko'rsatmaga ko'ra kasalxonaga yo'llanma berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashxislash va davolash faoliyatida:

- aholi orasida stomatologik kasalliklarni erta tashxislash;

- umumiy amaliyot stomatologiya faoliyatida zamonaviy tashxislash usullaridan foydalanish;

- keng tarqalgan stomatologik kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda to'g'ri davolash;

- bemorlarni ko'rsatmaga ko'ra tor mutaxassislar bilan birgalikda tekshirish va davolash;

o'z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Reabilitatsiya faoliyatida:

- stomatologik kasalliklar bo'yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, muddatlarini to'g'ri aniqlash;

- reabilitatsiya chora-tadbirlarini to'liq hajmda amalga oshirish;

bemorlar o'rtasida reabilitatsiya o'tkazishda zamonaviy usullardan foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko'rsatish;

- aholi o'rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

– sog‘liqni saqlash sohalarining barcha bo‘g‘inlari sub’ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlashga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;

– tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta tiklash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarni amalga oshirish;

– internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tadbiq etishda qatnashish bo‘yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

2. 60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

-davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammo va jarayonlarni tahlil qilish, turli kasbiy va ijtimoiy faoliyatida gumanitar, tabiiy-ilmiy, tibbiy-biologik va klinik fanlar usullarini amaliyotda qo‘llash qobiliyati va tayyorligi;

-xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

-muhim siyosiy voqealar va tendensiyalarni tahlil qilish, siyosiy hayotda ma‘suliyat bilan ishtirok etish, asosiy tushunchalar, jahon tarixiy jarayonining qonuniyatlarini bilish. Milliy mustaqillik g‘oyalarini tushunish va targ‘ibot qilish, o‘z mamlakatiga vatanparvarlik hissini uyg‘otish; tarixiy obidalar va an‘analarga hurmat va ehtirom qilish, davlat siyosatini baholash qobiliyati va tayyorligi;

-mamlakatning eng yangi tarixini va tarixiy-tibbiy atamalarni bilish qobiliyati va tayyorligi;

-o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘zini anglashga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga, foydalanishga tayyorgarlik, ijodkorlikka egaligi;

-jamoada ishlashga tayyorlik, ijtimoiy bag‘rikenglik etnik, konfessional va madaniy farqlarga tayyorligi;

– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim

- o'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy va huquqiy me'yorlarni hisobga olgan holda amalga oshirish, shifokorlar etikasi, maxfiy axborot bilan ishlash bo'yicha qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilish, shifokorlar sirini saqlash qobiliyati va tayyorligi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egaddash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- kasbiy faoliyatida axloqi va dentologik tamoyillarni amalga oshirishni bilishi, tibbiy xujjatlarni yuritish qoidalarini bilish,

- kasbiy muammolarni hal etish uchun inson organizmidagi morfofunktsional, fiziologik holatlarni va patologik jarayonlarni baholashni bilish;

- tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- sog'likni saqlash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, stomatologik kasalliklarining kelib chiqishi va (yoki) tarqalishining oldini olish, ularning erta tashxisi, ularning kelib chiqish va rivojlanish sabablari va sharoitlarini aniqlash, shuningdek, inson salomatligiga ekologik omillarning zararli ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish qobiliyati va tayyorlik;

- profilaktik tibbiy ko'riklar o'tkazish qobiliyati va tayyorligi, tibbiy ko'riklar va stomatologik patologiyasi bo'lgan bemorlarni dispanserizatsiyasi va dispanser nazoratga olishi;

- radiatsion vaziyat, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar yomonlashgan taqdirda epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, ayniqsa xavfli infeksiyalar o'choqlarida aholi muhofazasini tashkil etish qobiliyati va tayyorlik;

- stomatologik kasalliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tibbiy-statistik tahlil qilishning ijtimoiy-gigienik usullaridan foydalana olish va tayyorlik va asosiy tibbiy-statistik ko'rsatkichlar yordamida stomatologik yordam sifatini baholashda ishtirok etishga tayyorlik;

- bemor shikoyatlarini, uning anamnez ma'lumotlarini, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patoanatomik va boshqa holatini, stomatologik kasalligining mavjudligi yoki yo'qligi aniqlash;

- kasallik va sog'liq bilan bog'liq muammolarning xalqaro statistik tasnifiga muvofiq bemorlarda stomatologik kasalliklarining asosiy patologik holatlari, belgilari, sindromlari, nozologik shakllarini aniqlash qobiliyati;

- vaqtinchalik nogironlik tekshiruvini o'tkazishga, tibbiy-ijtimoiy ko'rikda ishtirok etishga, insonning biologik o'limini belgilashga tayyorlik;

- turli stomatologik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni boshqarish taktikasini aniqlash, ambulatoriya va kunduzgi shifoxona sharoitida stomatologik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni boshqarish va davolashga tayyorlik ko'rish;

- aholini sog'lomlashtiruvchi tabiatning asosiy gigienik tadbirlarini, salomatlikni saqlash va rag'batlantirishga yordam beruvchi asosiy fiziologik ko'rsatkichlarni o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini o'rgatishga tayyorlik, stomatologik kasalliklarining oldini olish;

- xavf omillarini bartaraf etish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv faoliyatiga tayyorlik;

- jamoat sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida, tibbiyot tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalarida tashkil etish va boshqarishning asosiy tamoyillarini qo'llay olish;

- dalillarga asoslangan tibbiyot asosida tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va ommaga taqdim etishga tayyorlik;

- anatomiyani o'rganishning zamonaviy usullari (rentgenografiya, rentgenoskopiya, angiografiya, KT, MRT va boshqalar), shakl va vazifaning birligi, xalqaro anatomik terminologiya, odam organizmning barcha tizimlar va ichki a'zolarining funksional va topografik anatomiyasi, rivojlanishi, kon bilan ta'minlanishi, innervatsiyasi, yuz-jag' sohasining taraqqiyoti, rivojlanish anomaliyalar, funksional va topografik anatomiyasining xususiyatlari, klinik ahamiyati, og'iz bo'shlig'ining anatomiyasi, dental anatomiya asoslari;

- jarrohlik uskunalari. Jarrohlik aralashuvlari turlari, to'qimalarni ajratish, kesib olish va tikishning asosiy bosqichlari., kalla sohasi to'qimalarini kesishning asosiy tamoyillari, topografiyasi, bolalar va kattalarda yuzning oldingi sohasi a'zo va to'qimalarining tuzilishi, shakli va o'zaro joylashishi, og'iz tubi yiringli jarayonlarining tarqalish yo'llari, yuz yon sohasining klinik anatomiyasi, fassiya va kletchatka bo'shliqlari, yiringli jarayonlarni tarqalish yo'llari, chakka-pastki jag' bo'g'imida chiqishlar, yuz-jag' sohasi jarrohlik aralashuvlarida introoral va ekstraoral usullarda mahalliy og'riqsizlantirish;

- hujayra va uning funksiyalarining ultrastruktur tavsifi, embrional rivojlanishining xususiyatlari, og'iz bo'shlig'ida regeneratsiya va apoptoz jarayonlarining namoyon bo'lishi, epiteliysining xususiyatlari, uning emal, so'lak bezlari, tilning ta'm bilish retseptorlari, murtaklar rivojlanishidagi ahamiyati, qon, limfa va qon yaratilishi, o'zak hujayralar, immun reaksiyalarining morfologik asoslari, og'iz bo'shlig'i to'qima va organlarining implantatsiya va transplantatsiyasi jarayonlaridagi immun reaksiyalarining ahamiyati, tishning qattiq va yumshoq to'qimalari rivojlanishi va morfo-funksional tavsifining molekulyar-genetik asoslari, dentin-pulpa kompleksi va uning regeneratsiyasi imkoniyatlari;

- zaamonaviy biologiyaning nazariy asoslari, hujayra organizmning struktur va funksional birligi, irsiyat va o'zgaruvchanlikning asosiy qonunlari, kanserogenez, odamning irsiy kasalliklari, gelmintozlar diagnostikasining asosiy usullari;

- biologik suyuqliklar xaqida tushuncha, stomatologiya amaliyotidagi bufer eritmalar, og'iz bo'shlig'ida kechadigan elektrokimyoviy jarayonlar, elektroforez va uni stomatologiyada qo'llanilishi, dispers sistemalar, so'lakni mitsellyar tuzulishi, uglevodlar, aminokislotlar, lipidlar almashinuvi, semizlik, aterosklerozning biokimyoviy asoslari, osteologiya va stomatologiyaning biokimyoviy mezonlari, so'lak sekretini shakllanishi, boshqarilishi, komponentlari; og'iz bo'shlig'ining ximoya tizimi, salivodiagnostika; asosiy stomatologik kasalliklar rivojlanishining biokimyoviy mexanizmlari; kimyoviy kanserogenez: molekulyar biologiya asoslari, yuz-jag' sohasi nuqsonlarini rivojlanishining molekulyar-genetik mexanizmlari;

- fiziologiya tabiatning asosi sifatida organizm va tashqi muhitning birligi; sog'lom organizmning hujayralar, to'qimalar, tizim-a'zolarining umumiy qonuniyatlari; organizm tizimlarining boshqarish mexanizmlari, adaptatsiya va gomeostaz; organizm funksiyalarini tekshirish usullari va asosiy fiziologik ko'rsatkichlari; og'iz bo'shlig'i funksiyalarini tekshirish usullari;

- kattalar va bolalar yuz-jag' sistemasi va yuz terisi hamda, yumshoq to'qimasi kasalliklarining patologik anatomiyasi; o'tkir va surunkali yallig'lanish morfologiyasi; seroz, fibrinoz, yiringli, gemorragik, chirikli yallig'lanish; immunopatologik jarayonlarning morfologiyasi; yuz yumshoq to'qimasi, bo'yin va og'iz bo'shlig'ining mezenximal o'smalari; a'zo va tuqimalar biopsiyasi, tibbiyot hujjatlarini tuzilishi va ularni to'ldirish tartib – qoidalari, tashxis tuzilishi va strukturasi;

- kasallikning sabablari, rivojlanish mexanizmlari va qonuniyatlari, yurak qon-tomir sistemasidagi o'zgarishlar, nafas, oshqozon-ichak sistemalarida, buyrak, endokrin va nerv sistemalaridagi buzilishlarni umumiy qonuniyatlari va ularning stomatologik kasalliklar bilan bog'liqligi;

- mikroorganizmlarning asosiy turlari, odam uchun patogen bakteriya, rikketsiya, mikoplazma, xlamidiya, viruslar, sodda jonivorlar va mikroskopik zamburug'larning taksonomiyasi, morfologik va biologik xususiyatlari, yuqumli kasalliklarga tashxis qo'yish usullari. Immunitet, uning turlari; organizmning nomaxsus va maxsus himoya omillari va ularning amaliyotdagi ahamiyati; antigen va antitelolar; odam tanasi biotoplari mikroflorasi, og'iz bo'shlig'i me'yoriy mikroflorasi;

- retseptning tuzilishi, dori vositalariga retsept yozish qoidalari, turli dori shakllariga retsept yozish usullari; umumiy farmakologiya (farmakokinetika, farmakodinamika), umumiy toksikologiya asoslari; xususiy farmakologiya (preparatlar tasnifi, ularning organ va tizimlarga ta'sir qilish mexanizmi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, yoshga bog'liq bo'lgan holda ta'sir etishning o'ziga xosligi, nojo'ya va zaxarli ta'siri, asoratlari) dori vositalaridan zaharlanganda birinchi yordam berish;

- aholi salomatligini o'rganish ko'rsatkichlari: Statistik tadqiqotlarni tashkil etish; demografiya, demografik ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil etish usullari; stomatologik kasallanishini o'rganish usullari va manbaalari; stomatologik

poliklinika va kasalxona ish faoliyatini tahlil qilish; yillik hisobot FN№3; qishloq aholisiga QVPda stomatologik yordam tashkil qilish (tuzilishi, vazifasi);

- stomatologlar va boshqa kasb xodimlarining mehnat gigienasi va kasb kasalliklari; stomatologiyada ionlashtiruvchi nur manbalaridan foydalanganda xodim va mijoz himoyasi; stomatologik davolash-profilaktika muassasalariga bo'lgan gigienik talablar, stomatologik kasallanishlarni profilaktikasida turmush tarzi, tashqi muhit omillari;

- ichki a'zolarining fizikal, funksional va qo'shimcha tekshiruv usullarini interpretatsiya qilish va tashhislash; sil qo'zg'atuvchisi va uning patomorfologiyasi va kasallikning patogenezi, hamda uning klinik belgilari, og'iz bo'shlig'i va periferik limfa tugunlari sili: kasallikning patogenezi, klinikasi, kechish xususiyatlari va profilaktikasi;

- pediatriya fani va uni stomatolog shifokorlar tayyorlashdagi o'rni; bolalik davrlari, bolalar organizmining anatoma - fiziologik xususiyatlari, bolalarda zotiljam kasalligidaqon,rentgen tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish, birlamchi tashxis quyish, birinchi yordam ko'rsatish va mutaxassisga yo'llanma berish;

- aseptika va antiseptika, qon ketishlar, shikastlanish, yiringli kasalliklarda laborator uskunaviy tashxislash, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash, operatsiya turlari va operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni davolash va parvarishlash, operatsiyadan keyingi davrda asoratlar va ularni oldini olish; tez tibbiy yordam; shikast, travmatizm, yumshoq to'qimalarning lat yeyishi, ezilishi, uzilishi, paylarning cho'zilishi, bosh miya yopiq shikasti; ko'krak qafasi, qorin, qorin bo'shlig'i yopiq shikasti; pnevmotoraks, gemotoraks, gemoperitoneum, peritonit klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari;

- ayol organizmining o'ziga xos xususiyatlari: hayz sikli, urug'lanish, homiladorlik, homiladorlikni kritik davrlari, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi paytda kechuvchi fiziologik va patologik jarayonlar; reproduktiv salomatlik, zamonaviy kontrasepsiya usullari, ayol jinsiy a'zolari yallig'lanish va o'sma kasalliklari;

- teri kasalliklari xaqida umumiy tushuncha, taxminiy tashxisni qo'yish xaqida umumiy tushunchani shakllantirish; piodermiya, dermatozoonoz kasalliklar, dermatitlar, psoriaz, pufakli va virusli dermatozlar, OIV-infeksiya, OITS, zamburug'li kasalliklar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, og'iz bo'shligigi rak oldi kasalliklari;

- farmakodinamika, farmakokinetika tushunchalari, dori vositalarning nojo'ya ta'sirlari va ularning o'zaro ta'siri, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalari, yuz-jag' soxasi og'rik sindromida qo'llaniluvchi dori vositalari, gemostazga ta'sir etuvchi dori vositalari, antibakterial dori vositalari;

- bosh miya nervlarini tekshirish usullari va ularning patologiyasida topik tashxislash asoslari; harakat sohasi va harakat patologiyasida topik tashxislash asoslari; neyrostomatologik sindromlar; stomatologik kasalliklarni davolashda xalq tibbiyoti usullari, ularga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar; stomatologik kasalliklarni davolashda xalq tibbiyoti usullarining qo'llanishi; ignarefleksoterapiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar; stomatologik kasalliklarni

fizioterapevtik usulda davolash, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, fizioterapevtik apparatalar;

- burun bo'shlig'ining o'tkir va surunkali kasalliklari: burun chipqoni, o'tkir va surunkali rinit, ozena, burun poliplari, burun to'sig'ining qiyshayishi, perforatsiyasi, gematomasi va xo'ppozi, burundan qon ketishlar; tashqi va o'rta quloq o'tkir kasalliklari: quloq suprasi xondroperixondriti, saramasi, quloq chirki, tarqoq va chegaralangan tashqi otit (chipqon), otomikoz, ekzema, o'tkir o'rta otit va uning asoratlari, yevstaxeit, mastoidit, petrozit;

- orbita, qovoq, kon'yunktiva va ko'z yoshi a'zolari kasalliklariga xos belgilarni aniqlash va unda umumiy amaliyot stomatologi taktikasi; organizmning umumiy kasalliklarida ko'z tubida kuzatiladigan o'zgarishlar va umumiy amaliyot stomatologi taktikasi; ko'ruv a'zosi, og'iz bo'shlig'i va yuz-jag' sistemasining birgalikda zararlanish sindromlari; ko'z ichi bosimi patologiyasi; glaukoma sabablari, tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash usullari, profilaktikasi va unda umumiy amaliyot stomatologini o'rni;

- bemorning psixik faoliyati qonuniyatlari, me'yor va patologiya chegarasi, kasallik rivojlanishida va davolanish jarayonida shaxs sifatida shakllanishi, psixologik o'z-o'zini boshqarish, umumiy psixopatologiya va xususiy psixiatriya, tashxislash, davolash asoslari, rehabilitatsiya va psixik buzilishlarni tavsiflash; hodisa va murda topilgan joyni ko'zdan kechirish; vrach stomatologlar tomonida tibbiy yordam nuqsoniga yo'l qo'yilgan xolatlarda komission sud tibbiy ekspertiza;

- rentgenologik tekshirish usullari; ultrasonografiya; nur tashxisotida tashxis qo'yish tamoyillari; kompyuter tomografiya; magnit-rezonans tomografiya; angiografiya, radionuklid usul; stomatologiyada qo'llaniladigan rentgen usullar; tish-jag' tizimi rivojlanishi;

- yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, og'iz bo'shlig'i va yuz-jag' tizimi a'zolarida namoyon bo'lishi, klinika, qiyosiy tashxisi, davolash, dispanserizatsiya, profilaktika chora tadbirlari; stomatologiya xonasi (bo'limida) infeksiyon nazoratini tashkil qilish, sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish.;

- mutaxassislikka kirish; stomatologik bo'lim, xona (terapevtik, jarroh, parodontologik, fizioterapevtik va boshqalar), uni jihozlanishi; ergonomika; hamshira va kichik hamshira majburiyatlari; stomatologik qurilmalar; stomatologiyada qo'llaniladigan dastalar va dastaklar turlari, o'rnatish koidalari; stomatologik asboblarni tasnifi, ko'rish va plombani qorish va qo'yishda ishlatiladigan asboblari; tishlarni charxlashda ishlatiladigan rotatsion asboblari, borlar, plombaga parдоз berishda foydalaniladigan asbob va ashyolar; fantomlarda karioz bo'shliqlarini charxlash va plombalash; oldingi va orqa tishlar restavratsiyasi; kariesni konservativ davolash usullari, turli karies shakllarini operativ davolash usullari, karies kavaklarini restavratsiya qilishning klinik tamoyillari, karies kasalligini umumiy davolash, profilaktikasi;

- bolalarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining (OBShQ) shakllanishi va fiziologik xususiyatlari, bolalar OBShQ kasalliklari tasnifi, klinik kechishi, tashxisi,

davosi; bolalarda o'tkir va qaytalanuvchi gerpetik stomatit, Vensan gingivostomatiti, klinik kechishi, tashxisi, davosi; OBSHQ virusli so'gallar, suvchechak va yuqumli mononukleozda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, klinik kechishi, tashxisi, davosi; bolalar yoshida OBSHQda kechadigan kandidozlar, sil va zaxm kasalliklaridagi o'zgarishlar klinik kechishi, tashxisi, davosi; orttirilgan immunitet tanqisligi sindromida bolalar og'iz bo'shlig'ida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, klinik belgilari, tashxisi, davosi; bolalar OBSHQ surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatit, Bexchet sindromi, ko'p shaklli ekssudatli eritema, Stivens-Jonson sindromlari klinik belgilari, tashxisi, davosi; dori-darmon allergiyasida bolalar OBSHQdagi o'zgarishlar, klinik belgilari, tashxisi, davosi; bolalar OBSHQning organizm a'zolari va sistemalari kasalliklaridagi o'zgarishlar, klinik belgilari, tashxisi, davosi; bolalarda til kasalliklari, ularning klinik belgilari, tashxisi, davosi; rombsimon glossit, deskvamativ glossit (geografik til), sochli til; bolalarda lab kasalliklari, ularning klinik belgilari, tashxisi, davosi;

- og'iz bo'shlig'i shilliq qavati (OBSHQ) tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, tekshirish usullari. Immunoflyuoressensiya, sitologiyasi OBSHQni patologik o'zgarishlari; zararlanishning morfologik elementlari; OBSHQning mexanik, fizik, kimyoviy shikastlanishlari: klinikasi, tashxisi va davolash; oq zaxarlanishlar. Leykoplakiya: klinikasi, tashxisi, davolash; og'iz bo'shlig'ida virus kasalliklarining (o'tkir respirator virus infeksiyalari, OITS, Vensan yarali-nekrotik stomatiti) klinikasi, tashxisi va davolash; sil, kandidoz, pigment zaxarlanishlar, allergik va boshqalar kasalliklarining og'iz bo'shlig'ida o'zgarishlar, klinikasi, tashxisi, davolash; OBSHQning dorilar ta'sirida zararlanishi; ko'p shaklli ekssudativ eritema, surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatit: klinikasi, tashxisi, davolash; endokrin kasalliklarida, oshqozon-ichak kasalliklarida, yurak-qon tomir kasalliklarida, qon va qon yaratuvchi a'zo kasalliklarida OBSHQ o'zgarishlar;

- asab tizimi kasalliklarida OBSHQ o'zgarishlar: klinikasi, tashxisi, davolash; glossalgiya: klinikasi, tashxisi, davolash; po'rsildoq: klinikasi, tashxisi, davolash; pemfigoid: klinikasi, tashxisi, davolash; qizil yassi temiratki: klinikasi, tashxisi, davolash; OBSHQning qizil yugurukda zararlanishi; tilning mustaqil kasalliklari va nuqsonlari: klinikasi, tashxislash va davolash; xeylitlar: klinikasi, tashxisi va davolash; OBSHQva lab qizil hoshiyasining obligat va fakultativ saraton oldi kasalliklari; xavfli omillari; karies va uning asoratlari, parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari fizioterapiyasi;

- og'iz bo'shlig'ini protezlashga xirurgik usul bilan tayyorlash; og'iz bo'shlig'i daxlizi plastikasi; retensiyalangan va yarim retensiyalangan tishlarni sug'urish; tish saqlovchi operatsiyalar; yuz-jag' sohasi yumshoq to'qimalari xavfsiz o'smalari va o'smasimon xosilalari; xavfsiz osteogen o'smalari: klinikasi, tashxisi, davolash; odontogen o'smalar: klinikasi, tashxisi, davolash; jag'larni o'smasimon xosilalari: etiologiyasi, patogenezi, tashxisi, davolash; so'lak bezlari o'smalari: klinikasi, tashxislash va davolash; turli (epitelial va noepitelial) kistalar klinik namoyon bo'lishi, tashxislash va davolash; adenokarsinoma: tashxislash va davolash tamoyillari; tug'ma kistalar, yuz va bo'yin oqma yo'llari: klinikasi, tashxisi

va davolash; tiklov operatsiyalarini rejalashtirish: rejalashtirishning asosiy tamoyillari, yuz sohasidagi plastik operatsiyalarga ko'rsatmalar va ularni o'tkazishdagi xususiyatlari; mahaliy to'qimalar bilan plastika qilish: mahalliy plastik operatsiyalar turlari, asoratlar; mikroxirurgiya usullarini qo'llab yuz jag' soxasi nuqson va shakl buzilishlarini plastikasi; yuz mimik mushaklari paralichi; yuz-jag' sohasi xavfli o'smalari bor bemorlarni tekshirish usullari, tashxislash; yuz terisi o'sma oldi kasalliklari;

- lab qizil xoshiyasi va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati o'sma oldi kasalligi, xavfli epitelial o'smalari: klinikasi, tashxislash va davolash prinsiplari; og'iz bo'shlig'i shilliq qavati xavfli epitelial o'smalari: til, lunj, tanglay va og'iz bo'shlig'i tubi; yag'larni xavfli epitelial va noepitelial o'smalari: klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va xirurgik davolash tamoyillari; ChPJB ankilozi va kontrakturasi: klinikasi, qiyosiy tashxislash, xirurgik davolash tamoyillari; suyak plastikasi; transplantat turlari; yuqori va pastki jag' deformatsiyalari: makro yoki prognatiyani bartaraf qilish; yuz-jag' sohasi yumshoq va suyak to'qimalari plastika operatsiyalarini o'tkazgan bemorlarni parvarishlash; uch shoxli nerv nevrit va nevralfiyasi; ChPJB disfunktsiya sindromi;

- to'liq tishsizlikda protez konstruksiyasini tekshirish; to'liq tishsizlikda bemor og'ziga tish protezini joylashtirish. yuz-jag' ortopediyasi; qisman va to'liq tishsizlikda implantatlar yordamida tish protezlash; to'liq tishsizlikda markaziy okklyuziyani aniqlash; tishlarni sferik yuzi bo'yicha terish; okklyuziogramma. tulik olib kuyiluvchi protez topshirish, bazis yuzasini perebazirovkasi, protezni kayta tiklash; tulik olib kuyiluvchi protez uchun maydon shakllantirish: terapevtik va xirurgik tayerlash; aralash (universal) artikulyatorlar; okklyudatorlar. amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar; ishchi va yordamchi modellar tayyorlash; ortopedik stomatologiyada estetik protezlash asoslari; ChPJB kasalliklari: tasnifi, tekshirish usullari, davolash asoslari. funktsiogrammani tahlili;

- fotokompozitlar va vinir-qoplamalar yordamida nokaries kasalligini davolash; yuz-jag' sohasi o'qli va o'qsiz jarohatlarni davolash asoslari. yumshoq va qattiq tanglayni nuqsonlarini ortopedik apparatlari bilan ortopedik davolash;

- katta yoshdagi insonlarda tish karashlari: olish usullari, asbob-uskunalar, parodont to'qimasini patologiyasi bor bemorlarni tekshirish usullari; parodont to'qimasini tuzilishi, funksiyasi. parodont kasalliklari: tasnifi, klinik shakllarini kechishi, qiyosiy tashxisi. parodont kasalliklarini mahalliy, umumiy va fizioterapevtik davolash usullari, profilaktika, retseptura; parodontning idiopatik va o'smasimon kasalliklarini davolashda stomatologning o'rni; parodont kasalliklarni profilaktika asoslari, dispanserizatsiya. kasallik tarixini yozish;

- parodont kasalliklariga ortopedik yondoshuv: etiologiya, klinikasi, tashxislash va qiyosiy tashxislash. bemorni tekshiruv usullari: klinik, rengenologik, laborator va funksional. parodont kasalliklarini xirurgik davolash usullari: yopiq va ochiq kyuretaj, gingivototomiya va gingivoektomiya, laxtakli operatsiyalar va osteogingivoplastika; parodont to'qimasining kasalliklari, asosiy simptomlari. tekshirish usullari; tishning tanlab charhlash, okklyuziogramma tahlili; o'choqli

paradontit. stabilizatsiya turlari; parodontit kassalligida tahtakachlar yordamida davolash. tarqoq parodontit: klinikasi, davolash mezonlari; tarqoq parodontitning davolashda ishlatadigan apparatlar turi; tish tojining patologik yemirilishi, etiopatogenezi, tashxisi, davolash; yuzning pastki qismi tarqoq patologik yemirilishi hisobiga pasayishi va pasaymagan holati, davolash mezonlari; qisman tishsizlikda tish qatorlari deformatsiyasi klinikasi, tashxisi va davolash; qisman tishsizlikda tishlovni buzilishi; prognatik tishlovda old tishlari frontal sohaga tarqalishi klinikasi, tashxisi, davolash; qisman tishsizlikda tish tojining patologik yemirilish oqibatida tishlovning buzilishi: tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash asosi; yuz-jag' tizimini nuqsonlari, ularni mahsus davolash; tishlarning shakli, joylashishi va soni nuqsoni, ularni davolash asosi;

- parodontal xirurgiyaga kirish; parodont kasalliklarida xirurgik davolashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar; parodontal xirurgiyada laxtakli operatsiyalarla; og'iz bo'shlig'ini protezlashga tayyorlash (vestibuloplastika, ekzostozlarni bartaraf etish operatsiyalari); parodontal xirurgiyada qattiq va yumshoq to'qimalar transplantatsiyasi va plastikasi; parodontal xirurgiyada kuzatiladigan asoratlar va ularni davolash usullari; parodontal xirurgiyada laxtakli operatsiyalar, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar; parodont kasalliklarida jag'lar va alveolyar o'siq atrofiyalarida suyak to'qimasi plastikasi, yo'naltiruvchi regeneratsiya usullari; ishlatiladiga osteoplastik materiallar klassifikatsiyasi, transplantatlar turlari, ishlatilishiga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar; osteogingivoplastika. parodontal xirurgiya operatsiyasi o'tkazilgan bemorlarni parvarishlash xususiyatlari, fizioterapevtik muolajalar; parodontal xirurgiyadan keyingi erta va kechki asoratlar tashxislash, davolash va profilaktikasi xaqida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy** va **tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha qo'yidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: umumiy amaliyot stomatologi.

2.3.2. 60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklari bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	7770	259
Tanlov fanlar	540	18
Malakaviy amaliyot	570	19
Yakuniy davlat attestatsiyalar	120	4
JAMI	9000	300

2.3.2. 60910100 – Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	semestri
1.00		Majburiy fanlar	7770	259	1-10
1.1.		Gumanitar va ijtimoiy fanlar moduli	540	18	1-3
1.1.01.	O'YaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.1.02.	FA1204	Falsafa	120	4	2
1.1.03.	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.1.04.	O'ZXTEL11206	O'zbek va xorijiy tillar moduli	180	6	1,2
1.2.		Klinika oldi fanlar moduli	2070	69	1-5
1.2.01.	VFTAT1104	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalar	120	4	1
1.2.02.	LOTT1102*	Lotin tili va tibbiy terminologiya*	60	2	1
1.2.03.	AN1123011	Odam anatomiyasi 1,2,3	330	11	1,2,3
1.2.04.	KLAN1404	Klinik anatomiya	120	4	4
1.2.05.	TBG.GIS112308	Tibbiy biologiya. Gistologiya, sitologiya va embriologiya	240	8	1,2,3
1.2.06.	TBK12308	Tibbiy va biologik kimyo	240	8	2,3
1.2.07.	FIZ12308	Fiziologiya-YuJS fiziologiyasi.	240	8	2,3
1.2.08.	PATFIZ1404	Patologik fiziologiya	120	4	4
1.2.09.	PATAN1404	Patologik anatomiya	120	4	4
1.2.10.	MBV1404	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	120	4	4
1.2.11.	FAR1504	Farmakologiya	120	4	5
1.2.12.	GTE1304	Gigiena. Tibbiy ekologiya.	120	4	3
1.2.13.	JSSMT1404	Jamoat salomatligi . Marketing	120	4	4
1.3.		Klinik (mutaxassilik) fanlar moduli	5160	172	1-10

1.3.1.	TER.KF15608	Terapiya. Klinik farmakologiya	240	8	5,6
1.3.2.	PED.TG1804	Pediatriya. Tibbiy genetika.	120	4	8
1.3.3.	DERM 1603*	Dermatovenerologiya *	60	2	6
1.3.4.	YQMKAS1702*	Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya*.	60	2	7
1.3.5.	NERV.RBT1705	Nevrologiya. Reabilitologiya	150	5	7
1.3.6.	PSXNR1702*	Psixiatriya, narkologiya*	60	2	7
1.3.7.	STVF1602*	Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari*	60	2	6
1.3.8.	TRAD1503*	Tibbiy radiologiya*	90	3	5
1.3.9.	XIR.TTY. 15606	Xirurgiya. Neyroxirurgiya. Tez tibbiy yordam	180	6	5,6
1.3.10.	AKSH1702	Akusherlik*	60	2	7
1.3.11.	ORL1903	Otorinolaringologiya*	90	3	8
1.3.12.	OFT1903	Oftalmologiya*	90	3	8
1.3.13.	SK1104	Stomatologiyaga kirish	90	3	1
1.3.14.	PRS11208	Preklinik restavratsion stomatologiya	240	8	1,2
1.3.15.	KRS13408	Klinik restavratsion stomatologiya	240	8	3,4
1.3.16.	KE16708	Klinik endodontiya	240	8	5,6
1.3.17.	SKP15608	Stomatologik kasalliklar profilaktikasi	240	8	5,6
1.3.18.	PD17808	Paradontologiya	240	8	7,8
1.3.19.	OBSHPK191008	Og'iz bo'shlig'i shilliq parda kasalliklari	240	8	9,10
1.3.20.	BKAR1804	Bolalar kariesologiyasi	120	4	8
1.3.21.	BGTS191008	Bolalar gospital terapevtik stomatologiyasi	240	8	9,10
1.3.22.	XS15679	Xirurgik stomatologiya	270	9	5,6,7
1.3.23.	BJS19108	Bolalar jarrohlik stomatologiyasi	240	8	9,10
1.3.24.	YJKJ17808	Yuz-jag' kasalliklari va jarohatlari	240	8	7,8
1.3.25.	YJJ191008	Yuz-jag' jarrohligi	240	8	9,10
1.3.26.	OSP12308	Ortopedik stomatologiya propedevtikasi	240	8	2,3
1.3.27.	FOS1.15606	Fakultet ortopedik stomatologiya 1	180	6	5,6
1.3.28.	FOS21704	Fakultet ortopedik stomatologiya 2	120	4	7
1.3.29.	GOS191008	Gospital ortopedik stomatologiya	240	8	9,10
1.3.30.	ORT18908	Ortodontiya	240	8	8,9
2.00		Tanlov fanlar (12 ta fan)	540	18	4,5,8-10
		<i>Jami</i>	8310	277	
		Malakaviy amaliyot	570	19	1-10
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	10
		<i>jami</i>	690	23	
		XAMMASI	9000	300	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavrning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, malaka talablari, bakalavriyatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, tibbiy bilim, sog'liqni saqlash tizimi, amaliy ko'nikmalar, tashkiliy -boshqaruv faoliyati, davolash faoliyati, tibbiy-profillaktik faoliyati, tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida, rehabilitatsiya faoliyati tadqiqot faoliyati, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika.

Stomatologiya, umumiy amaliyot stomatologi, asboblari va ashyolar, terapevtiv stomatologiya, ortopediya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, jarrohlik stomatologiyasi, tish, milk, ildiz, protezlash, yuz-jag', onkologiya, yallig'lanish, kasalliklar, parodont, karies, plomba, borlar, pulpit, periodontit, karash, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, tishlov, fantom-modellar, yoy, ko'priksimon tish protezi, parodont, dental implantologiya, okklyudator, sun'iy tish, artikulyator, qolip, chakka pastki jag' bo'g'imi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUILGAN:

Toshkent davlat stomatologiya instituti

Rektor N.K. Xaydarov



2023 yil « »

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy
ta'limini rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Direktor Sh. Yakubov

2023 yil « »

M.O'.




O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligi
Fan va tibbiy ta'lim Bosh boshqarmasi

Boshliq U. Ismailov

2023 yil « »

M.O'.



Muvofiqlashtiruvchi soha kengash
raisi,
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektor A. Shadmanov

2023 yil « »

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi
Stomatologlar assotsiatsiyasi

Rais A. Xasanov

2023 yil « »

M.O'.



**Toshkent davlat stomatologiya instituti 60910100 – Stomatologiya
(yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha malaka talablari va o‘quv
rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy
kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 2023 yil.

Biz quyida imzo qo‘yuvchilar - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Fan va tibbiy ta‘lim Bosh boshqarmasi boshlig‘i U.S.Ismailov, Muvofiqlashtiruvchi soha kengashi raisi, Toshkent tibbiy akademiyasi rektori prof. A.K. Shadmanov, O‘zbekiston Respublikasi Stomatologlar assotsiatsiyasi raisi prof. A.I. Xasanov, Toshkent Davlat stomatologiya instituti rektori prof. N.K. Xaydarov birgalikda TDSIda ishlab chiqilgan qo‘yidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60910100 – Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi

Malaka talablari hamda o‘quv rejalani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-xuquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talabalari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligi fan va tibbiy ta'lim Bosh
boshqarmasi boshlig'i,
t.f.d., professor**



O'. Ismailov

**Muvofiqlashtiruvchi soha kengash raisi,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori,
professor**



A. Shadmanov

**O'zbekiston Respublikasi Stomatologlar
assotsiatsiyasi raisi, professor**



A. Xasanov

**Toshkent davlat stomatologiya instituti
rektori, professor**

N. Xaydarov